

Kishilik Olmoshlarining Qarshi Pozitsiyaviy Jihatlarini Va Holatlari

*Muxtarova Shaxnozaxon Shuxratjanovna*¹

Annotatsiya: Maqola morfologik strukturasi turlicha bo'lgan dunyo tillarida kishilik olmoshlarining qarama-qarshilikiga bag'ishlangan. Birinchi va ikkinchi shaxs kishilik olmoshlarining ingliz, rus va o'zbek tillarida so'zlovchi va tinglovchilarning kommunikatsiya paytidagi mavqeyini aniqlashga ham alohida e'tibor berilgan. Shu bilan birga ikkinchi shaxs birlikdagi rus, o'zbek, ingliz tillaridagi "sen" kishilik olmoshining turli doiralardagi pragmatik ma'nosi ham izohlab o'tilgan. Kalit so'zlar: kishilik olmoshlari, kishilik olmoshlarining qarama-qarshilik holati, kishilik olmoshlarining pragmatik ma'nosi, kishilik olmoshlarining funksional xususiyatlari.

Tayanch so'zlar: kishilik olmoshlari, kishilik olmoshlari oppozitsiyasi, kishilik olmoshlari pragmatik ma'nosi, kishilik olmoshlari funksional xususiyati.

Qadimgi grek grammatistlari tomonidan alohida turkum sifatida ajratilgan olmoshlarning pronominal xarakteri lingvistika tarixida juda ko'p bahslarga sabab bo'lgan, lekin ularning turli qirralarini o'rganish va mohiyatini yana bir-bor nazardan o'tkazish hozirgi zamon tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri ekanligidan dalolat bermoqda. XX-asrning o'rtalaridan boshlab bir qator tadqiqotchilar olmoshlarning funksional xususiyatlariga o'z e'tiborlarini qaratdilar, chunki kommunikatsiya paytida olmoshlar asosiy muloqot vositasi bo'lib xizmat qiladilar. Ularning bu xususiyatlariga dunyoning ko'zga ko'ringan tilshunoslari o'zlarining ilmiy ishlarida alohida to'xtalib o'tganlar.

Olmoshlarning kommunikatsiyani amalga oshiruvchi gap tarkibida bajarayotgan ob'yekt va sub'yekt kabi vazifalarini olimlar allaqachon ta'kidlab o'tishgan. Olmoshlarning semantikasi va o'zlari ifoda etib kelayotgan shaxslarning turli jihatlarini ochib berishdagi ma'no nozikliklari ularni universal leksik birliklar deb atashga imkon beradi. Olmoshlar ichida so'zlovchi va tinglovchi shaxsini ifoda etayotgan birinchi va ikkinchi shaxs kishilik olmoshlarining qarama-qarshiligi mavqei va semantikasi boshqa olmoshlardan farq qiladi. Bu xolat E.Vohidovning quyidagi g'azalida o'z aksini topgan: Na men senga ishq is'hor etdim, Na sen menga mayl etding oshkor. Seni bir zum tutmoqqa endi, Na haqqim bor, na huquqim bor. Yuqoridagi misolda keltirilgan kishilik olmoshlarining qarama-qarshiligi, ya'ni qarama-qarshi polyusda namoyon bo'lishi inson tili uchun nihoyatda ahamiyatlidir.

"Shaxslarning qarama-qarshiligi kommunikatsiyaning asosiy shartidir, qolganlari esa pragmatikaning natijasidir"-deb yozadi fransuz tilshunosi E.Benvenist [1.447.]. Dunyo tillarid kishilik olmoshlarining tarkibi va soni turlichadir. Masalan turkiy tillardan bo'lmish o'zbek tilida uchinchi shaxs olmoshi uchta o'zak bilan xarakterlanadi: men-sen-u. Xind-yevropa tillarida esa olmoshlar tizimi boshqacha qurilgan. Kishilik olmoshlarini ifodalovchi o'zaklar soni shaxs sonidan ko'proq. Qiyoslang: rus tilida: Xitoy tili mutaxassislarining fikricha, qadimgi xitoy tilida uchinchi shaxs kishilik olmoshidan farq qilmagan. "Erl" olmoshi ham ikkinchi, ham uchinchi shaxsni ifodalab keladi. Kishilik olmoshlaridagi ko'plikning farqi muntazam yoki nomuntazam bo'lishi mumkin. Agglyutinativ tillarda son kategoriyasi muntazam kategoriya sifatida namoyon bo'lib, -lar suffiksi orqali ifodalanadi. Ingliz tilida esa son kategoriyasi muntazam bo'lmasligi mumkin, qisman, ikkinchi shaxs kishilik olmoshi bir paytning o'zida ham birlik, ham ko'plik, ma'nosini o'zida mujassamlashtirgan. "U" kishilik olmoshi birlik va ko'plik ma'nolarida o'zini namoyon etadi.

Ayrim tillarda, kingadir murojaat etish jarayo nida o'sha ashaxsning kasb-kori va unvoni bilan atash urf bo'lgan. Masalan, nemis tilida ikkinchi shaxs kishilik olmoshi insonlarni kasbi va unvoni bilan

¹ Andijon shahar 3-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi



atashga hizmat qiladi. Kishilik olmoshlarining sintaktik xususiyatlari anafora va katafora tushunchalari orqali aniqlanadi va ularning ma'nolari chap va o'ng tomonda kelayotgan kontekstda aks etadi. Chap tomonda kelayotgan kontekstda asosan uchinchi shaxs kishilik olmoshlari o'z ma'no nozikliklarini ifodalaydilar. Masalan:выплывляющий золото дnya, vozvyshalsya Isakiy (Sobor) On siyal nad rekoy [4.2.]. O'ng tekstda olmosh ravishlar o'z ma'nolarini aniqlashtiradilar. Masalan; Ertaga, 2 sentyabrda, bolalar maktabga boradilar. Ammo kishilik olmoshlari ham o'z ma'nolarini o'ng kontekstda reallashtiradilar. Masalan; Men, Parmonov birgadirman. Kishilik olmoshlarining o'z ma'nolarini o'ng kontekstda reallashtiruvchi ko'proq avtobiografik ocherklar hamda rasmiy ish uslublari uchun xarakterli hisoblanadi. Endi gapni "Sen" olmoshining tahlili bilan davom ettiramiz.

Tadqiqotchilar tomonidan hozirgi kunda "Sen" olmoshining quyidagi vazifalarda ishlatilishi kuzatilgan: 1. "Sen" olmoshi so'zlovchi va adresatning yaqinligini ifodalovchi vosita sifatida; 2. "Sen" qarindoshlar o'rtasida ishlatiladigan vosita sifatida; 3. "Sen" ni bolalar tilida ishlatilishi; Bu ko'pincha bolalarning o'zaro muloqoti yoki kichik yoshdagi bolalarning kattalarga murojaati paytida ishlatilishi; 4. "Sen"ni kattalar tomonidan ishlatilishi; 5. Muloqot paytida surbetlarcha, yuzsizlarcha adresatga "Sen" deb murojaat qilinishi; 6. Betakalluf munosabat, inoqlik, oshna-og'aynichilikda ishlatilishi; Yuqorida keltirilgan vazifalar bilan bir qatorda yana "Sen" olmoshi dialogdan tashqarida alohida ishlatiladi, ya'ni abstrakt insonlarni ifodalaydi. Masalan: "Sen vatan uchun nima qilding?" Inson atributlarini ham aks ettiradi. Masalan: "Eh hayot, sen nima uchun menga berilgansan?" Geografik, kosmik ob'yektlarni ifodalashda ham "Sen" olmoshi ishlatiladi. Eng qizig'i shundaki, "Sen" deb murojaat etish kim bilandir xayolan muloqot qilayotgan paytda shunday vazifani bajaradi. "Sen" olmoshining 7 xil nutqiy vaziyatda ishlatilishidan ikki turini alohida ajratib ko'rsatish kerak. Bular: "Sen"ni kattalar tomonidan ishlatilishi (Yosh iyerarxiyasiga binoan yuqoridan pastga qarab, ya'ni so'zlovchi yoshi ulug', adresat esa bola). Keyingisi "Sen"ni surbetlarcha, yuzsizlarcha ishlatilishi (ijtimoiy iyerarxiyaga ko'ra yuqoridan quyiga qarab). Nutqiy vaziyatda "Sen"dan tashqari yana "Siz" (Inklyuziv) olmoshi ham ishlatiladi. Bu olmosh ko'pincha murojaat etilayotgan paytda ikki shaxsni-adresat va so'zlovchini teppa-teng qamrab oladi. Shu bilan birga, mazkur nutqiy vaziyatda so'zlovchining adresatga nisbatan yuqoriroq mavqeini belgilaydi. Masalan: tibbiy ko'rikdan o'tayotganda vaziyatning egasi albatta vrach bo'ladi. Bunday paytda mijozning ijtimoiy yoki yoshiga nisbatan mavqei vrach uchun ahamiyatsiz. Shuning uchun u mijozga homiylarcha yoki mehribonlarcha murojaat etib, "Siz" olmoshini ishlatishi tabiiy xol. Qiyoslang, rus tilida: Nu, kak мы sebya chuvstvuyem? Davleniye u nas normalnoye, razve chutochku povыsheno, no nam ne dvadsat let [3.69.]. So'zlovchining adresat bilan hamkorligi, hamdardligi shunchalik yuqoriki, u o'zini adresat holatiga solib, uning dardiga sherik bo'lmoqchi. Birinchi shaxs ko'plikdagi so'roq formasi quyidagi kalimalarda, jumladan, "Qalay ishlayapmizmi?" kabilarda so'zlovchi o'zi ishlamayotgan bo'lsada, adresat bilan hamkorligini ta'kidlamoqchi. Shuni ham e'tibordan chetga chiqarmaslik kerakki, so'zlovchi o'zini tinglovchining shaxsiy doirasiga nafaqat hamdardlik bildirgani, balki, tanqidiy maqsadlarni ko'zlab ham kirishi mumkin. Masalan: "Xaliyam dam olayapmizmi?; Nima qilamiz, mum tishlab turaveramizmi?" Rus tilidagi "On" va "Ona" olmoshlari o'zgacha pragmatik vazifa bajaradilar. Ya'ni odamlarni so'zlovchining shaxsiy ta'siridan chiqarib tashlashni ifodalaydilar. U xolatda so'zlovchini odamlarni haqoratlashga, hurmat qilmaslikka yoki tarbiyasining me'yorda emasligiga ishora qilishga moyilligini bildiradi.

Dunyo tillarining ayrimlarida kishilik olmoshlari so'zlovchi va tinglovchiga ishora qilish bilan birga inson xususiyatini (xarakteristikasini) belgisi sifatida ham o'zlarini nomoyon etadilar. Masalan: E. Kinanning guvohlik berishicha Madagaskar tilida olmoshlar interaksiya ishtirokchilarini qaysi millatga mansubligini ham ko'rsatib keladilar. Mazkur maqola ingliz, o'zbek va boshqa tillardagi kishilik olmoshlarining barcha xususiyatlarini qamrab ololmadi. Chunki, kishilik olmoshlarining semantik qarama-qarshiliksi so'l va o'ng kontekstlarda bajaradigan vazifalari hamda ularning ma'no nozikliklari kabi bir qator bahstlab muammolar keyingi maqolalarimizda o'z aksini topadi. Kishilik olmoshlarining ummondek serqirra xususiyatlarini kichkina bir ilmiy maqolada tahlil qilishning iloji ham yo'q. Keyingi maqolalarimizda va magistrlik dissertatsiyamizda dunyo tillarida universallik kasb etuvchi kishilik olmoshlarining nafaqat opoozitsiyasi, balki matn hosil qilishdagi imkoniyatlari ham ilmiy tahlildan o'tkaziladi, chunki kishilik olmoshlaridek muloqot mezonining asosiy omillaridan



hisoblanmish olmoshlar ham semantik, ham pragmatki ma'no kasb etadigan serqirra til birliklari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Benvenist. E. Obщaya lingvistika. M. Progress, 1974. 447 str.
2. Vohidov E., Muhabbat, Toshkent 1979,93 bet.
3. Raximov S.R. «Problema deyksisa kak kategorii tipologicheskoy lingvistiki». Dissertatsiya na soiskaniye uchenoy stepeni doktora filologicheskix nauk. Andijan 1990.
4. Radiy Pogodin, jurn. «Neva», 1983, 2str.

